



UDK: 372.850

Nargis DJURAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi

Qashqadaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi p.f.d M.Shodiyeva taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, bugungi kunning asosi hisoblanadi. O'qituvchi o'zining ish faoliyatida o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega. Shuni esda tutish kerakki, tabiiy fanlarni o'qitishga muammoli yondashishda yetakchi rolni o'qituvchi o'ynaydi, o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, amaliy va aqliy ishlari ularning bilish faoliyatiga o'qituvchi doimo izchillik bilan va mohirona rahbarlik qilganda muvaffaqiyatli rivojlanadi. Shu boisdan bugungi kunda metodlarning tavsifi va mavzuga oid metodlar ishlanmasi ushbu maqolada ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Tabiiy fanlar, metodika, pedagogika, innovatsion metodlar, didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasi, mantiqiy fikrlash, "Sayohat" treningi, krossvord.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЕСТЕСТВЕННОСТИ НАУКАХ В ЧАСТНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Аннотация

Использование интерактивных методов в преподавании естественных наук в начальных классах является основой сегодняшнего дня. В своей работе преподаватель должен четко определить объем работы учащихся в процессе приобретения навыков. Также важно использовать разные методы обучения. Следует помнить, что при проблемном подходе к преподаванию естественности такую же роль играет преподаватель, самостоятельность мышления учащихся, практическая и интеллектуальная работа их познавательной деятельности успешно развивается при последовательном и умелом руководстве обучением. Поэтому описание методов и разработка методов, относящихся к теме, представлены в данной статье.

Ключевые слова: Естественные науки, методика, педагогика, инновационные методы, образовательная технология с дидактическими играми, логическое мышление, тренинг «Коммуникация», кроссворд.

POSSIBILITIES OF USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING NATURAL SCIENCES IN PRIVATE CLASSES

Annotation

The use of interactive methods in the teaching of natural sciences in primary classes is the basis of today. In his work, the teacher should clearly define the scope of work of the students in the process of acquiring skills. It is also important to use different teaching methods. It should be remembered that in the problematic approach to the teaching of natural sciences, the teacher plays the same role, the independence of thinking of the students, the practical and intellectual work of their cognitive activity develops successfully when the training is consistently and skillfully guided. Therefore, the description of the methods and the development of methods related to the topic are presented in this article.

Key words: Natural sciences, methodology, pedagogy, innovative methods, educational technology with didactic games, logical thinking, "Communication" training, crossword.

Kirish. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi tabiiy fanlarni o'qitishda bolalarni har tomonlama tarbiyalashning mazmuniga va metodlarini ochib beruvchi pedagogik fandır. U pedagogikada ishlangan tadqiqotlarga asoslanadi va o'z predmetini o'qitish mazmunini hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda uning metodlaridan foydalanadi. O'quvchilarga tabiatni o'rgatib borish bilan o'qituvchi ularni ta'limni davom ettirish va amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilimni o'quv va ko'nikmalar bilan qurollantiribgina qolmay, dunyoqarashi, irodasi, xarakterini ham shakllantiradi, aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunga ko'ra, tabiiy fanlarni o'qitishning shakl va metodlarini ishlab chiqadi. O'qitish jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlarni – predmet mazmunini, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini, fanni o'qitish va ko'nikmalarni egallab olishni o'z ichiga oladi.

Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasining vazifalari qatoriga o'quv fani sifatida tabiiy fanlar mazmunini aniqlash, o'qitishning metod va uslublarini tadqiq etish, zarur o'quv jihozlarini tayyorlash kiradi. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi faqat o'qitish jarayonini ta'riflash va tushuntirish bilan cheklanib qolmay, balki qoidalarni ham ishlab chiqadi, o'qituvchi ularga asoslanib, shu fan bo'yicha bolalarni muvaffaqiyatli ravishda o'qitishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi maktabda hamma tabiat haqidagi fanlarni o'qitishga oid masalalarni – o'qitishning g'oyaviy yo'nalganligini, o'qitishning mazmuni bilan metodlarning birligini, o'quv ishlarining shakllari

o'rtasidagi izchillikni va barcha tarbiyalovchi ta'lim elementlarining yaxlitligini hamda rivojlanishini ko'rib chiqadi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning innovatsion metodlardan foydalanib, tashkil etish uchun avvalo darsning rejasini va loyihasini aniq ishlab chiqilishi lozim. O'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.

N.O'ktamovanning fikriga ko'ra didaktik o'yinli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jixati, an'anaviy ta'limdagidan farkkilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqilligi va o'quv fani faoliyatini taqiqlamasdan, balki belgilangan maksadga yo'naltirish o'quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etishni talab etadi. Ularni faoliyatiga og'li ravishda yo'llash biror-bir faoliyatni buyruq orqali amalga oshirmasdan, balki samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash xuquqini berish sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'qituvchi darsning har xil bosqichlarida: materialni tushuntirish vaqtida, amaliy ish, tajribalarni namoyish qilish jarayoni va hokozalarda uning mazmuniga qarab, muammoli vaziyatlar hosil qilish va muammoli savollar qo'yishi mumkin. Faqat shuni esda tutish kerakki, tabiiy fanlarni o'qitishga muammoli yondashishda yetakchi rolni

o'qituvchi o'ynaydi, o'quvchilarning fikrlash mustaqilligi, amaliy va aqliy ishlari ularning bilish faoliyatiga o'qituvchi doimo izchillik bilan va mohirona rahbarlik qilganda muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Tahlillar va natijalar. Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, bugungi kunning asosi hisoblanadi. O'qituvchi o'zining ish faoliyatida o'quvchilarning ko'nikmalar egallash jarayonidagi ishlar doirasini aniq belgilab olishi lozim. Shuningdek, u qanday o'qitish metodlaridan foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega

“Sayohat” treningi.

Metodning tavsifi: Ushbu metod yoki o'quvchilarni mustaqil ravishda fikrlay olishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan.

Sinf: II sinf

Mavzu: Tog'lar.

Metodning maqsadi: O'quvchilarda mavzuni yaxshi tushinishda sayohat treningini integratsiyalashni tashkil etish va sayohat davomida o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

Metodning qo'llanilishi: O'quvchilarga g'oyibona sayohatni tashkil etishda ushbu mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar namoyish etiladi. Guruhlar ishi amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, flomaster(yoki rangli qalam)lar, mavzu yuzasidan video material. Krossvord, tuproq.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'quvchilarni sayohatlarga olib borish va ularni maktabdan tashqarida o'rganishga undaydigan topshiriqlar berish orqali ushbu strategiyadan foydalanish mumkin. O'quvchilarga guruhlariga ajratiladi. Har bir guruhga shunday topshiriqlar beriladi:

Tasavvur qiling erta toqqa sayohatga chiqamiz. Shu guruhingiz a'zolari ichidan guruh sardori, oshpaz, yo'l ko'rsatuvchi saylab oling.

Sayohat davomida zarur bo'ladigan 10 ta buyum nomini yozing. Ular eng zarur buyumlar bo'lsin.

Guruhlariga topshiriqni belgilangan vaqtda bajarish topshirig'i beriladi. Vaqt tugagach, hamma ish faoliyatini to'xtatadi. Guruh sardori ro'yxatga kiritilgan buyumlar nomlarini o'qiydi va ular nima uchun ishlatilishini tushuntiradi. Ro'yxat jamoa bilan tahlil qilinadi: Agarda mana shu buyum olinmaganda, uning o'rnini nima bosa oladi? Nima qolib ketgan?

Eng zarur buyumlar ro'yxatini to'g'ri tuzgan jamoa g'olib bo'ladi.

Talablar:

Ushbu metoddan foydalanishda o'qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo'ladi:

Topshiriqlar o'tiladigan mavzuga mos kelishi;

Amaliy jarayonni bajarishda tuproqni uyib balandlik hosil qilish;

O'quvchilarning tasavvurini shakllantirishda video materiallardan foydalanish.

Natija:

O'quvchilarning tasavvuri kengayadi;

Tog'lar haqidagi bilimlari rivojlanadi;

Guruh bo'lib ishlash ko'nikmalari shakllanadi.

“Nima uchun?” o'yini.

Metodning tavsifi. o'quvchilarning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga qaratilgan.

Sinf: III sinf

Mavzu: Kunlik suv sarfini hisoblash.(Loyiha ishi)

Metodning maqsadi: ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi, ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarini topishni o'rganadilar, ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

Metodning qo'llanilishi: O'quvchilarga ushbu mavzu yuzasidan video material namoyish etiladi. Nima uchun? savollariga javob berish jarayoni amalga oshiriladi.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: Tarqatma materiallar, video material, sayt ma'lumotlaridan foydalanish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

1-bosqich. O'qituvchi bir qancha muammoli holatlar ro'yxatini tuzadi. Har bir holat yakunida “Nima uchun?” degan savol qo'yiladi. O'qituvchi o'quvchilarni navbat bilan turg'izib, ushbu savollarni bera boshlaydi. O'quvchilardan savollarga juda qichqa vaqtda, tezda javob berishlari talab etiladi.

2-bosqich. O'quvchilarning javoblarida mas'uliyat hissi muhokama qilinadi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Sen uyga vazifani bajarmay kelding. Nima uchun?

Suvni iste'mol qilish mumkinmi? Nima uchun?

Sen suvdan tejamkorlik bilan foydalana olmading.

Nima uchun?

Suv sarfini kamaytirmading. Nima uchun?

Suvni oqizib qo'yish mumkinmi? Nima uchun?

Xatti-harakatlarimiz orqali suvning ifloslanishi mumkinmi? Nima uchun?

Suvni tejash kerakmi? Nima uchun?

Suvsiz hayot yo'q. Nima uchun?

Suv obi-hayot. Nima uchun?

Talablar. Ushbu metoddan foydalanishda o'qituvchi quyidagi talablarga amal qilishi lozim bo'ladi:

Mavzu yuzasidan loyiha ishini tashkil etish;

Suv haqida video materiallar tayyorlash;

Xaritadan okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar tasvirini ko'rsatish.

Natija. Suvni iste'mol qilish va undan oqilona foydalanish haqidagi bilimlari kengayadi;

O'quvchilarda tejamkorlik sifatleri tarbiyalanadi;

Mustaqil fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi.

Darhaqiqat, ta'lim muassasasida innovatsiya jarayonlarini tashkil etishning pedagogik shartlarini quyidagicha izohlaymiz:

1. Innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi nazariy-pedagogik qoidalar majmuini ishlab chiqish;

2. Ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot salohiyatini shakllantirish;

3. Innovatsion faoliyatni tashkil etishni ta'minlashning asosiy shartlari, alohida boshqaruv jihatlarini, ya'ni mazkur faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan, yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish.

Xulosa. O'qituvchilarni ta'lim tizimidagi innovatsion jarayonlarga va innovatsion faoliyatga tayyorlash o'ziga xos pedagogik muammo bo'lib, uning asosida o'qituvchining o'z-o'zini kasbiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion jarayonlarning ahamiyatini anglashi, o'zgarishlar va yangiliklarning mazmun-mohiyatini tushunishi va mantiqan zarurligini qabul qilishi kabi omillar yotadi.

ADABIYOTLAR

1. Джураева Н. Н. (2023). Бошланғич синф ўқувчиларини табиий (science) фанлардан кўникмаларини шакллантиришда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш.//Илм fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanilishi, 3(6), 134-139.
2. Narkulovna D. N. (2023). The role of interactive methods in science teaching. science and scientific research in the modern world, 1(7), 76-80.
3. Narkulovna D. R. N. (2024). Boshlang'ich sinflarga tabiiy fanlarni oqitishda ekologik tushunchalarni shakllantirishning ahamiyati. worldly knowledge konferens, 7(1), 95-98.
4. Kaxharovna X. O. (2021). Ta'lim oluvchi individualligini rivojlantirishning ahamiyati: DOI: 10.53885/edinres. 2021.64. 46.143
5. Aziz Sa'dullayev. (2024). aspects of forming voluntary qualities in overcoming anxiety in adolescent wrestlers. News of UzMU Journal, 1(1.4), 176-179. <https://doi.org/10.69617/uzmu.v1i1.4.2035>
6. Baratova D. To'liq bo'lmagan oila natijasida bolalar psixikasida yuzaga keladigan salbiy asoratlar. Norasmal ta'limdagi yevropa

jurnali. 2023 yil 19-may;3(5):54-8.

7. Zikirova T. Y. (2022). Pedagogical aspects of the problem of professional pedagogical skills of a modern teacher. the role of science and innovation in the modern world, 1(3), 29-37.
8. Alisherovna T. M. (2023). Problems of Psychological Despotism of Gender Equality in Problem Families. International Journal of Formal Education, 2(3), 146-152.